

## QO'QON AREALI FOLKLORIDA UCHRAYDIGAN UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIGA OID LEKSEMALAR VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI.

Sotvoldiyeva Mastura Baxtiyorjon qizi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qo'qon areali folklorida uchraydigan uy- ro'zg'or buyumlariga oid leksemalar ajratib olindi, tahlil qilindi va ularning semantik tahlili yoritib berildi.*

**Kalit sozlar:** *Likor, payola, po'p, kosa, chovli.*

**Аннотация:** *В данной статье выделены, проанализированы лексемы, связанные с предметами быта, встречающиеся в фольклоре Кокандского региона, и дана их семантическая характеристика.*

**Ключевые слова:** *Тарелка, пайола, поп, миска, чаули.*

Ertak va latifalarda Qo'qon arealiga oid misollar yoritib berildi. O'zbek shevalari o'zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida umumiy leksik qatlamga egadir. Har bir shevaning leksik qatlami o'sha shevaning hayotiy zarur so'zlarni qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, tilshunosligimizda xalq dostonlari leksikasining sheva va adabiy tilga munosabatini ochishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham anchagina. Sh.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, A.Ishayev, B.To'ychiboyev, A.Rahimov va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografik tadqiqotlari lisoniy dalillarga boyligi va ilmiy nazariyligi bilan muhim o'rin tutadi.

A.Ishayevning ilmiy ishlari ham aynan xalq dostonlari leksikasi va uning tilini jiddiy o'rganishga, leksik materialning sheva va adabiy tilga munosabatini ochib berishga bag'ishlangan<sup>23</sup>. B.To'ychiboyevning xalq dostonlari tilini o'rganishga bag'ishlangan kuzatishlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning "Alpomish va xalq tili" nomli monografik tadqiqotida ta'kidlangan dostonning lingvostilistik tadqiqiga bag'ishlangan<sup>24</sup>. A.Rahimovning nomzodlik ishi<sup>25</sup> ham Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Go'ro'g'li" turkumiga mansub "Xushkeldi" va "Qunduz bilan Yulduz" dostonlari tilini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, Z.Xolmonova o'zining dissertatsion tadqiqotda<sup>26</sup> leksik material tahliliga birmuncha keng qamrovli yondoshgan. Po'lkani shoir kuylagan "Shayboniyxon" dostoni tilidagi so'zlar qo'llanishiga ko'ra alohida kichik guruhlariga ajratilgan; bir doston matnidagi so'zlar leksik-genetik jihatdan aniqlangan, mavzuiy va semantik guruhlar asosida tasniflagan, sheva variantlariga qiyoslangan qo'llanish me'yorlari va matnning tarixiy manbalari belgilangan.

### 3.1. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlari.

Har bir sheva folklorida bo'lgani singari Qo'qon shevasi folklori leksikasi ham faqat shu shevaning o'z so'zlaridagina iborat emas. Garchand biz qayd etmoqchi bo'lgan leksik birliklar ba'zilar hozirgi kunda o'zbek adabiy tilida qo'llanmayotgan

<sup>23</sup> Ишаев А. Халқ дostonлари лексикаси // Ўзбек халқ ижоди. –Т. 1967. –Б 167-177

<sup>24</sup> Тўйчибоев Б Алпомиш ва халқ тили –Т 2001 160

<sup>25</sup> Раҳимов А. С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий тарихий таҳлили. НДА. –Самарқанд, 2002 -27 б

<sup>26</sup> Холмонова З. "шайбонийхон" дostonи лексикаси. НДА. –Тошкент, 1998. -25 б

bo'lsa-da, ularning aksariyati umumturkiy asosga ega. Aslida sheva leksikasi deganda muayyan shevada qo'llanadigan barcha so'zlar yig'indisi tushuniladi<sup>27</sup>.

Uy-ro'zg'or buyumlarining nomlarini ifodalovchi so'zlar kishilik taraqqiyotining juda qadim zamonlar bilan bog'liq bo'lib, jamiyat a'zolarining kundalik ehtiyojini moddiy va madaniy hayotining o'sib borishi davomida yuzaga keladi. Uy-ro'zg'or buyumlarini bildiruvchi o'roq, bolg'a, bolta, qozon, tovoq qoshiq, cho'mich kabi so'zlar qadimdan turkiy turkiy tillarda mavjud bo'lib, ular turli ma'nolarda qo'llangan. Turmush uchun zarur bo'lgan har bir buyumning o'z qo'llanish o'rnini, nomi, shakli mavjuddir. "Idish" so'zi qadimiy yozma yodgorliklarda turli ro'zg'or buyumlari ma'nosida qo'llangan bo'lsa, O'rxun-Enasoy yodgorliklarda idish-chelak ma'nosida ifodalangan. Qo'qon shevasida ham uy ro'zg'or buyumlarini ayrim sheva variantlari mavjud. Masalan: choydush (mis yoki cho'yanda ishlangan choy qaynatish uchun qo'llaniladigan idish). Boshqa shevalarda qo'llanayotgan chaydush-choydush so'zi esa ana shu chovgum so'zining sinonimidir.

Qo'qon areali folklori leksikasining mavzuiy guruhlariga ajratib chiqilganda, dastlab biz uy-ro'zg'or buyumlari tahliliga diqqat qaratdik. Uy ro'zg'or buyumlari ham semantik jihatdan o'z ichida bir necha guruhlariga ajraladi. Ya'ni qanday maqsadda foydalanilishiga ko'ra mazmuniy guruhlariga ajraladi. Shu jihatdan bir necha folklor namunalaridan uy-ro'zg'or buyumlari nomlariga diqqat qaratdik:

#### Ertak

Bir bār ekan, bir yog' ekan bir tulki bilan turna dos tutinišipti. Bir kuni tulki turnani mehmānga čaqiripti va tulkivāy mehmonga čirājli āvqat piširipti va turnani kelišiga dasturxān tuzapti. Ālma, uzum mevalardan qojipti sāpāl laganga kamgir bilan āš suzip kelipti. Mehmānga āling mehmān, āliq mehmān dep ozi āvqatdan jejaveripti. Turnavāj esa šu harakat qilsa ham bir čoqim ham jejālmapti. Kejin tulkivāj mehmāni ujiga kuzatipti. Va turna uni ham mehmānga ajtip ketipti. Ertasi kuni tulkivāj turnanikiga mehmānga bāradi. Jolda ketajātsa širin hidlar dimāg'iga urilipti. Va ičida dostim meņa zuda ma'zali taām tajjārlajapti dep ojlapiti. Turnavāj uni keliši bilan dasturxānga taklif qilib, āg'zi inička kozada šorva tārtiq qilipti. Tulkivāj ištahalari āčilip āvqatlanišga harakat qilipti lekin bir luqma ham sālāmapti.

#### Idish nomlari:

Likāp-adabiy tilda tovoq, ovqat solishda ishlatiladi, asosan, quyuq ovqatlar va mevalarni solib dasturxonga qo'yiladi. Yuzasi yoyiq keng yassi idish. Sopol, chinni lagan qadimdan tayyorlangan, bezakli va bezaksiz turlari mavjud.

Piyala- adabiy tilda piyola, ichimlik quyilib ichiladigan idish. Kuchli fonetik o'zgarishga uchragan holda talaffuz qilinadi.

Kamgir- adabiy tilda kapgir, osh va quyuq taomlarni suzish uchun ishlatiladign ro'zg'or buyumi.

Chilopchin- qo'l yuvganda ostiga qo'yiladign idish.

<sup>27</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 78.

Po'p- adabiy tilda samovar to'y-marosimlarda choy qaynatish uchun foydalaniladigan katta idish.

Latifalar: Abdurahmon qiziq.

-Qarañ, bittasi išdan kelip, qārni āčqap, xātinini čaqirip, āvqat-pāvqatiñ bārmi? disa āvqat yāg'idi disa, eee hey nimañ bār? Ha čāj bor, nān bār dipti, āpke dipti, āpkeganimiš, qarasa haligi nāndiyam diñ, sal suvi qāčganrāg' nānakan. Bir bāla qip sindirvāpti-yu. Sindirib ālip, čājdi quyip, čājga bātirip, yeb otirip hajāl ketip qāpti ha esizgina-ya hāzir šu čājdi ornida bir kasagina qajnatma šorva boganda, maza qilib ičib otirardim dip tursa di, qošnisini og'li kasa kotarip kep qoganimiš. E, og'lim ehtiyot bop kelovir, op kelovir baqa disa, Haligi bola aytarmiški; tog'a dadam aytmi qošnirikiga kirgin agar qaynatma šo'rva qilgan bo'sa, opčiqqin didi disa mindey qarap; obbo, ho'y senlarni dastingdan bir narsani o'ylabam bo'maydimi?- diyarimiš

Kasa- adabiy tilda kosa, piyoladan kattaroq, suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. Og'zi keng, ichi chuqur, tagi torroq shaklda, hunarmandchilikda sopol, mis, chinnilardan tayyorlanib ichi bezaksiz, usti ko'rkam qilib bezatiladi.

Chovli-yog'ga biron ovqat pishirilganda yog'ini oqizib olish uchun ishlatiluvchi uy-ro'zg'or buyumi,suzgich.

Samavar-somovar choy qaynatib ichish uchun foydalaniladigan buyum. Bu uy-ro'zg'or buyumi o'zbeklarning to'ylarida ko'pchilik uchun choy qaynatish uchun foydalaniladi.

Surpa-taxta-supra hamir qilish, unni elakdan o'tkazish uchun foydalaniladigan matodan, yoki hayvon terisidan tayyorlanadigan uy-ro'zg'or buyumi.

Iyna- igna tikish uchun xizmat qiladigan boshi nayzali, oxiri ko'zli metal asbob. Bu ot qadimgi turkiy tildagi yopishtirib zich tikilgan ma'nosini anglatgan yigi sifatidan ( Devon III, 32) –nā qo'shimchasi bilan yasalgan. Yiginā > yignā, yignā > ignā, ignā > iynā, niynā shakllarida ishlatish mavjud bo'lib Qo'qon shevasida aynan iyna va niyna shakllari qo'llanadi.

Barkaš- tovoq, o'n-o'n beshta odam uchun ovqat solinadigan katta tovoq. Boshqa shevalarda bu so'z patnos ma'nosida qo'llaniladi.